tamlakachiligi, milliy zulm va ijtimoiy tengsizlik sayohatnoma janrining tanqidiy ruhda shakllanishiga zamin yaratgan bo‘lsa, XIX asr ikkinchi yarmidan boshlab satira va tanqidiy realizmning kuchayishi uning badiiy-estetik qiyofasini boyitdi. Shuningdek, safar va ziyorat an’analarining kengayishi adiblarning dunyoqarashini kengaytirib, sayohatnomani milliy madaniyat, tarixiy xotira va yurtshunoslik bilan bog‘liq holda shakllantirdi.

Muqimiyning “Sayohatnoma” asarida diniy riyokorlik, amaldorlar zulmi va jaholat tanqid qilinib, safar davomida uchratilgan makon va shaxslar orqali jamiyatning umumiy ijtimoiy manzarasi yaratiladi. Muqimiy boshlab bergan an’ana Zavqiy va Hayratiy ijodida davom etib, xalq hayoti, mehnatkashlarning turmushi hamda tarixiy-madaniy makon obrazlari badiiy talqin qilindi. Ahmad Donish asarlarida esa sayohat janrining falsafiy va tahliliy imkoniyatlari yanada kengayib, Rossiya taraqqiyoti fonida axloqiy bo‘shliq va ijtimoiy tengsizlik masalalari yoritildi. Jadid adabiyotida sayohatnoma ma’rifiy-publitsistik mazmun kasb etib, Behbudiy va Avloniy ijodida ilm-fan, taraqqiyot va milliy uyg‘onish g‘oyalarini targ‘ib qiluvchi muhim vositaga aylandi.

Sayohatnoma dastlab safar taassurotlarini ifodalovchi shakl sifatida yuzaga kelgan bo‘lsa-da, keyinchalik, jamiyatni badiiy idrok etishning muhim janriga aylandi. Safar motivi orqali adiblar nafaqat geografik makonlarni, balki ijtimoiy munosabatlar, madaniy qadriyatlar va milliy tafakkurni ham tahlil qildilar. Sayohatnomalarda makon tarixiy xotira, ijtimoiy muhit va milliy ongning badiiy ifodasi sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan, janr tanqidiy realizm va ijtimoiy-falsafiy tafakkur bilan uzviy bog‘liq holda rivojlandi.

Sovet davrida sayohatnoma ideologik nazorat ta’sirida bo‘lib, ko‘proq targ‘ibot vazifasini bajargan bo‘lsa-da, ayrim asarlarda ramziy ma’nolar orqali shaxsiy kechinmalar va madaniy xotira unsurlari saqlanib qoldi. Mustaqillik yillarida esa janr yangi bosqichga ko‘tarilib, tarixiy xotira, madaniyatlararo muloqot, shaxsiy tajriba va individual tafakkurni yorituvchi muhim badiiy shaklga aylandi. Natijada sayohatnoma o‘zbek adabiyotida milliy o‘zlik, ijtimoiy tanqid va madaniy tafakkurni aks ettiruvchi muhim estetik hodisa sifatida shakllanganligi aniqlandi.

Xulosa. O‘zbek adabiyotida sayohatnoma janri XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yuzaga kelgan murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar hamda adabiy tafakkur evolyutsiyasining bevosita mahsuli sifatida shakllandi. Ushbu janr tanqidiy realizm va ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanib, milliy identitetni anglash va jamiyatni badiiy tahlil qilishning muhim vositasiga aylandi.

Sayohatnoma asarlarida safar motivi orqali tarixiy xotira, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy ongning turli qatlamlari badiiy ifoda topdi va mazkur janr o‘zbek adabiyotining nafaqat estetik, balki ijtimoiy-ma’rifiy funksiyalarini ham boyitdi. Bugungi kunda sayohatnoma janri milliy adabiyot taraqqiyotini, madaniy tafakkur dinamikasini va jamiyatning tarixiy o‘zini anglash jarayonlarini o‘rganishda muhim ilmiy manba sifatida dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Karimov N. Jadid adabiyoti va ma’rifatparvarlik harakati. Toshkent, “Fan”, 2011, 256-bet.
(2). Normatov U. O‘zbek adabiyoti tarixi masalalari. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2007, 312-bet.
(3). Qosimov B. Ahmad Donish va Markaziy Osiyo ma’rifatparvarligi. Toshkent, “Fan”, 2004, 198-bet.
(4). Rasulov A. Mumtoz va yangi o‘zbek adabiyoti: izlanishlar va tahlillar. Toshkent, “Akademnashr”, 2010, 284-bet.
(5). Muqimiy. Tanlangan asarlar. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1974. – 320-bet.
(6). Zavqiy. Asarlar. Toshkent, “Fan”, 1978, 210-bet.
(7). Hayratiy. Saylanma. Toshkent, Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981, 176-bet.
(8). Donish A. Navodir ul-vaqoe’. Toshkent, “Fan”, 1960, 245-bet.
(9). Behbudiy M. Tanlangan asarlar. Toshkent, “Sharq”, 1999, 352-bet.
(10). Avloniy A. Tanlangan pedagogik va publitsistik asarlar. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1988, 304-bet.
(11). Pratt M.L. Imperial Eyes: Travel Writing and Transculturation. London, Routledge, 1992, 257 p.
(12). Hulme P., Youngs T. The Cambridge Companion to Travel Writing. Cambridge, Cambridge University Press, 2002, 302 p.

Soatova Shahnozabonu Farhod qizi (Guliston davlat universiteti, 10.00.02-adabiyotshunoslik tayanch-doktoranti; E-mail: shahnozasoatova@gmail.com)

ASAR TAHLILIDA ILMIYLIK VA DIDAKTIK UYG‘UNLIK

Annotatsiya. *Ushbu maqolada badiiy asar tahlilida ilmiylik va didaktik yondashuvning o‘zaro uyg‘unligi masalasi yoritiladi. Adabiy tahlil jarayonida nazariy bilimlarning ahamiyati, o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirishdagi didaktik usullar hamda asarni chuqur anglashda ilmiy tahlilning o‘rni tahlil*

etiladi. Shuningdek, badiiy asarni o'rganishda zamonaviy pedagogik metodlarning samaradorligi va adabiyot ta'limidagi tarbiyaviy jihatlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: *asar tahlili, ilmiylik, didaktika, adabiyot ta'limi, badiiy tafakkur, pedagogik yondashuv, tahlil metodlari, tarbiya, estetik qarash, o'quvchi tafakkuri.*

Соатова Шахнозабону Фарход кызы (Гулистанский государственный университет; 10.00.02 – аспирант по литературоведению; E-mail: shahnozasoatova@gmail.com)

ГАРМОНИЯ НАУКИ И ДИДАКТИКИ В АНАЛИЗЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ

Аннотация. *В данной статье рассматривается вопрос гармонии научного и дидактического подходов в анализе произведения искусства. Анализируется важность теоретических знаний в процессе литературного анализа, дидактические методы в развитии мышления студентов, а также роль научного анализа в глубоком понимании произведения. Рассматривается также эффективность современных педагогических методов в изучении произведения искусства и образовательные аспекты в литературном воспитании.*

Ключевые слова: *анализ произведения, научная обоснованность, дидактика, литературоведение, художественное мышление, педагогический подход, методы анализа, образование, эстетическое видение, мышление студента.*

Soatova Shahnozabonu Farhod kizi (Gulistan State University, 10.00.02-PhD student in literary studies; Email: shahnozasoatova@gmail.com)

SCIENCE AND DIDACTIC CONSISTENCY IN THE ANALYSIS OF A WORK

Annotation. *In this article, the issue of mutual harmony of scientific and didactic approach in the analysis of an artistic work is highlighted. In the process of literary analysis, the importance of theoretical knowledge, didactic methods in the development of students' thinking, and the role of scientific analysis in the deep understanding of the work are analyzed. Also, the effectiveness of modern pedagogical methods and educational aspects of literature education are discussed.*

Keywords*: Analysis of the creature, scientificity, didactics, literature education, artistic thinking, pedagogical approach, analysis methods, education, aesthetic vision, student's thinking.*

Kirish. Adabiyot inson ma'naviyatini boyituvchi, estetik tafakkurini shakllantiruvchi muhim vositalardan biridir. Badiiy asarlarni chuqur o'rganish va tahlil qilish esa o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi, ularda mustaqil mushohada yuritish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu sababli asar tahlilida ilmiylik va didaktik yondashuvning uyg'unligi muhim metodik tamoyil sifatida qaraladi.

Bugungi ta'lim tizimida adabiyot darslarining asosiy maqsadi faqat asar mazmunini tushuntirish emas, balki o'quvchilarda badiiy-estetik tafakkurni shakllantirish, asarni mustaqil tahlil qilish malakasini rivojlantirishdan iboratdir. Bunga erishishda ilmiy asoslangan tahlil metodlari hamda didaktik vositalarning o'rni katta.

Adabiyotlar tahlili. Asar tahlilida ilmiylik adabiy-nazariy tushunchalar, tarixiylik, obrazlar tizimi, muallif uslubi va g'oyaviy mazmunni chuqur o'rganishni nazarda tutadi. "Ilmiy tahlil o'ziga xos hissiy intellektual ijod bo'lgani uchun unda mutaxassis shaxsiyatining ta'siri yaqqol sezilib turadi", deydi Q. Yo'ldoshev [1;100-b.].

Shu bilan birga, badiiy asarni tahlil qilish ilmiy yondashuvni talab etadigan murakkab jarayondir. Chunki har bir asarda muallifning estetik qarashlari, davr ruhi, badiiy mahorati va falsafiy mushohadalari mujassam bo'ladi. Ilmiy tahlil esa aynan shu jihatlarni aniqlash va o'quvchiga tushuntirishga xizmat qiladi. Mashhur rus adabiyotshunosi A.Bushmin ancha yillar oldin haqli ravishda ta'kidlaganidek: "Ma'lumki, ilmiy fikrlash tarzi badiiy obrazni bus butun qamrab ololmaydi, undagi ko'p ma'noli mohiyatning barcha qirralarini to'liq ilg'ayolmaydi, u ko'rsatgan ta'sir o'rnini bosolmaydi" [2;112-b]. Bundan tashqari, badiiy asarda kompozitsion va syujet unsurlari yordamida tahlil qilish ham maqsadga muvofiq. Syujet esa adabiy asarda tasvirlangan harakatning mazmunini ifodalovchi voqealar sistemasi, aniq voqealar tizmasida namoyon bo'ladigan harakatlar tarixidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolaning tadqiqot metodologiyasi qismida asar tahlilida ilmiylik va didaktik uyg'unlikni ochib berishga xizmat qiluvchi bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Jumladan, tahliliy metod asosida badiiy asarning mazmun-mohiyati, obrazlar tizimi hamda g'oyaviy yo'nalishi chuqur o'rganildi. Qiyosiy-tahliliy metod yordamida turli adabiy qarashlar, metodik yondashuvlar va ilmiy fikrlar o'zaro taqqoslandi. Shuningdek, pedagogik kuzatish metodi orqali asar tahlilining o'quvchilar tafakkuri, estetik didi va mustaqil fikrlashiga ta'siri tahlil qilindi. Tadqiqot davomida induktiv va deduktiv metodlardan ham samarali foydalanilib, alohida kuzatishlardan umumiy ilmiy xulosalar chiqarildi hamda nazariy qarashlar amaliy misollar orqali asoslandi. Bundan tashqari, tizimli yondashuv asosida asar tahlili-

ning ilmiylik va didaktik tamoyillari o‘zaro uyg‘un holda tadqiq etildi. Ushbu metodlar maqolaning ilmiy-nazariy asoslanganligi hamda amaliy ahamiyatini yoritishda muhim omil bo‘lib xizmat qildi.

Tahlillar va natijalar. Asar tahlilida ilmiylik, avvalo, adabiy-nazariy tushunchalarga tayangan holda olib boriladi. Jumladan, sujet, kompozitsiya, konflikt, obraz, badiiy detal, peyzaj, portret kabi tushunchalar asarning mohiyatini ochishda muhim vosita hisoblanadi. Ijodkorning adabiy-estetik qarashlari va ularning ijodida namoyon bo‘lishiga oid masalalarni adabiyotshunoslikning ilg‘or tamoyillari hamda metodlari asosida tahlil qilish milliy adabiyotshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi. Ulardan biri madaniy-tarixiy yondashuvdir. Madaniy-tarixiy yondashuv san’at asarida milliy ruhni aks ettirishda muhit, ya’ni, tabiat, iqlim, sotsial omil, ijtimoiy sharoitga xos jihatlarni ko‘ra va ko‘rsata bilish hal qiluvchi o‘rin tutishini hisobga oladi [1;232-b.]. Madaniy-tarixiy yondashuv san’at asarida milliy ruhni tabiat va ijtimoiy sharoitga xos jihatlarni ko‘rsatishga xizmat qiladi. P.Qodirovning “Qora ko‘zlar” romanida inson, oila, e’tiqod, to‘g‘rilik kabi ma’naviy muammolarni o‘ziga xos insonlar taqdiri misolida aks ettiradi. “Yulduzli tunlar” romani ham ayni shu yondashuv asosida tahlil qilingan. Professor Q.Yo‘ldoshev: “Men madaniy-tarixiy yondashuvni to‘g‘ri deb hisoblamayman, sababi har qanday inson she’r yoki roman yozolmaydi. Bobur, “Boburnoma” asarlari P.Qodirovdan oldin ham bo‘lgan, ammo aynan P.Qodirov “Yulduzli tunlar” romanini yoza oldi”, deb ta’kidlaydi [1;234-b.].

Masalan, Abdulla Qodiriyning O‘tkan kunlar romanini tahlil qilishda tarixiylik, milliy qadriyatlar, obrazlar tizimi va muallif uslubini ilmiy asosda o‘rganish talab etiladi. Agar tahlil faqat voqealarni qayta hikoya qilish bilan cheklansa, asarning badiiy qiymati to‘liq ochilmaydi.

Bugungi kunda multimedia vositalari, elektron taqdimotlar va virtual sayohatlar ham asar tahlilida samarali qo‘llanmoqda. Bu usullar ayniqsa tarixiy va biografik asarlarni o‘rganishda katta ahamiyatga ega.

Asar tahlilida ilmiylik va didaktika bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Ilmiy asos bo‘lmasa, tahlil yuzaki bo‘lib qoladi. Didaktik yondashuvsiz esa murakkab ilmiy tushunchalarni o‘quvchi ongiga singdirish qiyinlashadi. Ularning uyg‘unligi quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

1. Nazariya va amaliyot birligi.
2. Mustaqil fikrlashni rivojlantirish.
3. Tarbiyaviy ahamiyat.
4. Estetik tafakkurni shakllantirish asosiy jihatlar hisoblanadi.

Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimida innovatsion metodlardan foydalanish zarurati ortib bormoqda. Adabiyot darslarida ham zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash asar tahlilining samaradorligini oshiradi. Xususan:

–multimedia taqdimotlari;

–elektron darsliklar;

–virtual muzey va sayohatlar;

–interfaol platformalar;

–audio va videomateriallar o‘quvchilarning mavzuga qiziqishini kuchaytiradi.

Masalan, Alisher Navoiy ijodini o‘rganishda tarixiy obidalar yoki qo‘lyozmalar bilan bog‘liq virtual materiallardan foydalanish o‘quvchilarda kuchli taassurot uyg‘otadi. Innovatsion yondashuvlar o‘quvchilarning mustaqil izlanish olib borishiga ham imkon yaratadi. Natijada ular oddiy tinglovchi emas, balki faol tadqiqotchi sifatida shakllanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, asar tahlilida ilmiylik va didaktik tamoyillarning uyg‘unligi ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ilmiylik tamoyili badiiy asarni chuqur, asosli va mantiqiy tahlil qilish imkonini bersa, didaktik tamoyil o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda bilimni sodda, tushunarli hamda ta’sirchan tarzda yetkazishga xizmat qiladi. Ushbu ikki tamoyilning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida o‘quvchilarda nafaqat adabiy-estetik tafakkur, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalari ham shakllanadi. Shu bois asar tahlilida ilmiy yondashuvni didaktik maqsadlar bilan birlashtirish adabiyot ta’limining mazmun va sifatini yanada yuksaltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Yo‘ldoshev Q., Yo‘ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. Toshkent, 2016.
(2). Бушмин А.С. Наука о литературе. Москва, 1980.
(3). Abdullayeva M. Mumtoz tarixiy poetika. T., G‘afur G‘ulom, 2023.
(4). Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2006.
(5). Yo‘ldoshev Q. So‘z yolqini. Toshkent, G‘afur G‘ulom, 2018.